
RADDIYA



Ijtimoiy tarmoqlarda “4 oy avval ko‘prigimiz buzilganча ta‘mirlanmadi. O‘qishga qatnashga qiynalyapmiz” nomli sarlavhasi bilan tanqidiy murojaat e‘lon qilindi.

Murojaatda shunday deyilgan: “Farg‘ona viloyati Qo‘sh tepa tumani Do‘rmon qishlog‘idan murojaat yo‘llayapmiz. Talabalarmiz. 4 oy avval ko‘prigimiz buzilganча ta‘mirlanmadi. Shu sabab o‘qishga borishga qiynalyapmiz. Hatto mashinalar ham qatnamayapti. Xullas, shahardan uzilib qoldik. Yo‘lkira oshib, Farg‘onada ijarada yashashga to‘g‘ri kelyapti. Ko‘prik qurib berishlari, hech bo‘lmasa vaqtincha osma ko‘prik yasab berishlarini so‘raymiz”.

Qo‘sh tepa tumanining Do‘rmon mahallasi hududida joylashgan ushbu ko‘prik zamon talablariga mos ravishda yangi qurilib, 2022 yilning bahorida foydalanishga topshirilgan. Bundan ko‘rinadiki, yo‘llangan murojaat o‘z tasdig‘ini topmagan va haqiqatga umuman to‘g‘ri kelmaydigan yolg‘on ma‘lumot ekanligini ma‘lum qilamiz.

Qo‘sh tepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-10-09 21:32:43